

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI

Jovliyeva Dildora Ilhom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: jovliyevadildora3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentligini, shaxsiyatini shakllantirish muhim davr ekanligi, pedagogik faoliyatda o'yinning ahamiyati va muvofaqiyatlari, bolalarning shaxsini, aqliy-axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishda pedagogning o'rni, o'yin turlari, mashxurlarning fikrlari, ta'lim sifatini oshirishda o'yinnig afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: salohiyat, kamolot, kompetensiya, faollik, mahorat, kompetentlik, intellektual-salohiyat, kommunikativlik, ijtimoiylashuv, estetik tarbiya.

Аннотация: В статье представлена информация о значении игры в формировании личности и социальной компетентности дошкольников, значении и пользе игры в педагогической деятельности, роли воспитателя в формировании личности, интеллектуальных и морально-волевых качеств детей, видах игр, мнениях известных людей, преимуществах игры в повышении качества образования.

Ключевые слова: потенциал, зрелость, компетентность, активность, умение, компетентность, интеллектуальная компетентность, коммуникабельность, социализация, эстетическое воспитание

Abstract: This article presents information about the importance of play in the formation of the personality and social competence of preschool children, the importance and benefits of play in pedagogical activity, the role of the educator in

the formation of the personality, intellectual, moral and volitional qualities of children, types of play, opinions of famous people, the advantages of play in improving the quality of education.

Key words: *potential, maturity, competence, activity, skill, competence, intellectual-competence, communicativeness, socialization, aesthetic education*

Kirish: Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarish farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor sog'lom mafkurali, yuksak ma'naviyatli, yurt ravnaqi yo'lida mustahkam irodali, raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga bevosita bog'liqdir. Maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'limning eng muhim ilk bo'g'ini sifatida bilamiz. Maktabgacha ta'lim har tomonlama mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolalarni intellektual-salohiyatli, tanqidiy fikrlash qobiliyatga ega etish, uning bor imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, bolani butun kelajagida muhim o'rin egallaydigan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim dargohidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bu o'ziga xos olam, unda bola o'zini qulay, xavfsiz va manzur sezishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va undagi olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari bola qobiliyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Barchamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etiladi. Bu dasturi maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda ilk dadil qadam hisoblanadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining

maqsad va vazifalari, faoliyatning asosi ifodalangan. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ta'limiy faoliyatni o'yin orqali tashkil etilishining samarali tomonlariga e'tibor qaratamiz. "O'yin orqali ta'lim berish"-maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning eng muhim yondashuvidir. O'yin bola o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. O'yin orqali bola o'z ehtiyojini qondiradi, yangi bilim ko'nikmalarga ega bo'ladi. O'yin o'zini anglash, menligini shakllantirish va atrofidagi dunyoni bilish imkonini beradi. Uni "bolalikning hamrohi" deb ataymiz. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bolalar o'yini turkumlari mazmuni, xususiyatiga ko'ra xillari.

O'yin turkumlari

a) Ijodiy o'yinlar

b) Qoidali o'yinlar

O'yin yetakchi faoliyat sifatida mehnat va ta'lim faoliyati asosida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida aksariyat ta'limiy faoliyatlar, mehnat faoliyatlari o'yin shaklida olib boriladi. Bu usul ham qulay ham samaralidir. Chunki o'yinda boladagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi yani bola harakat qiladi, munosabatga kirishadi, jamoa bo'lib ishlashga o'rganadi, ijod qiladi, o'rganadi, boshqaradi, fikrlaydi, idrok etadi, o'ylaydi eng muhimi har bir faoliyatda natija borligini anglaydi. Umumiy qilib aytganda o'yin tarbiyaning muhim vositasi sanaladi va u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.

Ijodiy o'yinlar bola tomonidan o'ylab topiladi va unda maxsus belgilangan qoidalar mavjud emas. O'yin jarayonini bolaning o'zi shakllantiradi, boshqaradi, qoidalarni ham o'zi yaratib, rollarni ham o'zi taqsimlaydi.

Ijodiy o'yin turlariga quyidagilar kiradi:

- syujetli-rolli o'yinlar
- sahnalashtirilgan o'yinlar
- qurilish yasashga doir o'yinlar

- Qoidali o'yinlar nomidan ham ma'lum mazmuni va qoidasi mavjud o'yinlar.

Qoidali o'yinlarning bir qancha turlari bor:

- didaktik o'yinlar
- harakatli o'yinlar
- musiqaviy o'yinlar
- ermak o'yinlar

O'yin estetik tarbiya vositasi sifatida ham qaraladi. Bolalar ijtimoiy hayotda ko'rgan voqealarini, olgan ta'surotlarini rollar orqali aks ettiradi. O'yin mavzusi bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan voqealar bolalarning bilim darajasi va hayotiy tajribasining kengligiga bog'liq. Bolalarni erkin fikrlashga o'rgatishda, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda, o'z "Men" ligini topishga yordamlashishda, ta'limiy jarayonlarni, o'yin faoliyatini tashkil etishda pedagog tomonidan rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratishi lozimki, unda har bir bola o'zini mustaqil, erkin, ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog tomonidan bolalarga o'yin vaqtida mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish, imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, hamda o'yindan zavqlanish hissini shakllantirib borilishi talab etiladi. O'yinlarning tarbiyaviy jihatida pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq va bolaning individual hamda yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'yinlarni to'g'ri tanlay olishi, tashkil etishi, pahlavonlik qila olish, bolalar o'rtasida jamoaviy munosabatlarni to'g'ri shakllantirishiga bog'liq.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi deydi:

- maftunkorlik
- kommunikativlik
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish

- tashxis
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot
- ijtimoiylashuvlik.

Yan Amos Komenskiy – “O'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutqini rivojlanadi” - deydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha yosh davr bu shaxsiyat shakllanishining qisqa, ammo muhim davr hisoblanadi. O'yin ko'p qirrali hodisa bo'lib, bolaning rivojlanishi va tarbiyasida, bilimlarining ortib borishida, o'zini anglashida muhim o'rin egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsini, uning aqliy-axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qaraladi.

XULOSA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda o'yin faoliyati eng samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Chunki o'yin – bu bolaning tabiiy ehtiyoji, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy manbaidir. O'yin jarayonida bola o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatga kirishadi, hamkorlik, muloqot, o'zini ifoda etish, his-tuyg'ularini boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi. Zamonaviy pedagogika fanida o'yin orqali ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. Xususan, rol o'yinlari, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, ijodiy o'yin mashg'ulotlari bolalarda muloqot madaniyati, hamdardlik, jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin asosida tashkil etilgan ta'lim muhitida bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasi an'anaviy usullarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatini pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etish bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini, o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. O'yin orqali bola atrofdagi ijtimoiy

qoidalarini tabiiy ravishda o'zlashtiradi, bu esa uni kelajakdagi ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentligini oshirishda o'yin nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning har tomonlama yetuk shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bois, pedagoglar o'yin faoliyatini rejalashtirishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishlari, o'yin orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishlari zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni.
2. E.A. Migranova, Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish / O'quv qo'llamna. Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
- 3.I.V. Grosheva, L.G. Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022.
4. F.Qodirova, SH. Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 bet
- 5.Sh.A. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:. 2013 y.- 288 bet.
6. Khayitboboyevich, A. D. (2025). Pedagogical possibilities of organizing music listening activities of future music teachers. *International Journal of Pedagogics*, 5(02), 56-59.
7. Khayitboboyevich, A. D. (2025). Development of Professional Competence of Future Music Teachers on The Basis of Music Listening Activity. *European International Journal of Pedagogics*, 5(02), 34-37.